

## MILLIY MADANIYAT – HINDISTON TASHQI SIYOSATIDAGI “YUMSHOQ KUCH” NI AMALGA OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

**Samiyeva Madina**

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi kafedrası o'qituvchisi madinasamiyeva2@gmail.com*

**Anotatsiya:** *Hindistonning muhim global maqsadlaridan biri uning qadimiy madaniy va sivilizatsiya ildizlariga tayangan holda yumshoq kuchini qo'llashidir. Bugungi kunda mamlakatning madaniy merosi va butun dunyoga tarqalgan diasporasi orqali ifodalagan yumshoq kuchi kuchli eslatma bo'lib xizmat qilmoqda. Hindiston tashqi siyosatida esa "yumshoq kuch" ning barcha manbalarini, besh toifaga bo'lish mumkin, bular: milliy madaniyat, ichki qadriyatlar, chet elda joylashgan hind diasporasi, shuningdek iqtisodiy potensial hamda raqamli texnologik progressiyalardan iborat. Ushbu maqolada milliy madaniyatning va uniga yaqin bo'lgan boshqa bir qator tarkibiy qisimlarning Hindiston tashqi siyosati va umuman mamlakat xalqaro imidjidagi ahamiyati borasida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *“Yumshoq kuch”, Bollivud, Hindiston, Pokiston, diaspora, din*

**Annotation:** *One of India's important global goals is to leverage its soft power, drawing on its ancient cultural and civilizational roots. Today, the country's cultural heritage and the soft power it expresses through its global diaspora serve as a powerful reminder. In India's foreign policy, all the sources of "soft power" can be divided into five categories: national culture, internal values, the Indian diaspora located abroad, as well as economic potential and digital technological advancements. This article provides valuable information about the importance of national culture and a number of other related components in India's foreign policy and the country's international image as a whole.*

**Key words:** *"Soft power", Bollywood, India, Pakistan, diaspora, religion*

Madaniy diplomatiya – xalqaro munosabatlarning vositasi sifatida azaldan mavjud bo'lib kelgan. Harbiy qudratning "qattiq kuchi" bilan taqqoslaganda, madaniy diplomatiyaning "yumshoq kuchi" ko'pincha chuqurroq, uzoq muddatli va ishonarli bo'lgan. Hindiston va Pokiston sharoitida madaniy diplomatiya orqali tinchlik o'rnatish salohiyati katta va shu bilan u o'zaro munosabatlarni yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan muhim vositalardan biri hisoblanadi. Madaniy diplomatiya mamlakat yumshoq kuchining muhim o'lchovidir. Hindiston san'ati, madaniyati asrlar davomida dunyoning turli burchaklaridan odamlarni o'ziga jalb qilib kelgan. Bosh vazir Modi yumshoq kuchning yangi elementlarini birlashtirib, hind diplomatiyasini qayta yangiladi. Strategik ma'noda qo'llaniladigan ushbu yumshoq kuchning beshta ustuni: Samman (qadr-qimmat), Samvaad (dialogiya), Samriddhi (umumiy farovonlik), Suruksha (mintaqaviy va global xavfsizlik) va Sabhayata (madaniy va sivilizatsiya

aloqalari). Bular mamlakatning kengroq siyosiy va iqtisodiy maqsadlari bilan bog'liq. Darhaqiqat, Hindiston tashqi siyosatidagi "yumshoq kuchi" ning asosi milliy madaniyati hisoblanadi. Hindistonda madaniyat an'anaviy va zamonaviy madaniyat kabi bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar bilan ajralib turadi. Milliy madaniyatning asl ildizlariga ko'proq e'tibor qaratish va uni aslidek saqlab qolishga urinish, an'anaviy madaniyat qadriyatlarini hind tashqi siyosatining "yumshoq kuch"ining vositalaridan asosiyga aylantirilishi o'ziga xos ahamiyat kasb etib uni Xitoy "yumshoq kuchi" bilan solishtirganda asosiy farq ham shunda ko'rinadi. Shu bilan birga Hindiston zamonaviy madaniyatni ham e'tiborsiz qoldirmasdan uni o'zining "yumshoq kuchining" muhim omili sifatida biladi, bu yondashuvni Osiyoning boshqa mamlakatlari, xususan Yaponiya va Janubiy Koreya "yumshoq kuchlari" bilan solishtirganda ularning strategiyalariga yaqinligini ko'rish mumkin bo'ladi<sup>38</sup>.

Hind madaniyati Osiyoning ko'plab mamlakatlari jamiyatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi va G'arbning Sharqqa romantik qarashlarini ma'naviyat, donolik va farovonlik hukm suradigan ekzotik mamlakat sifatida shakllantirdi.

Hind madaniyatining jozibadorligi uning yashovchanligi va mamlakatda qadim zamonlardan buyon birga yashab kelayotgan irqiy, diniy, etnik va til guruhlarining xilma-xilligi bilan izohlanadi. Bir necha asrlar davomida hind sivilizatsiyasining o'ziga turli madaniyatlar: yunon (keyinchalik ellinistik), arab, fors, yevropa ta'sir ko'rsatgan. Hinduizm, Buddizm, Jaynizm va Sikxizm, Islom, Xristianlik, Iudaizm va Zardushtiylik kabilar asl hind dinlari bilan bir qatorda, hanuzgacha amal qilmoqda.

Hindistonning "yumshoq kuchi" va uning diniy diplomatiyasining juda muhim vositasi buddaviylik bo'lib, u uzoq o'tmishda-yoq Osiyoning chekka mintaqalariga mamlakatning kelajakdagi ta'sirini bashorat qilgan edi. Imperator Ashoka Hindistonning Buddizm diplomatiyasiga muhim hissa qo'shgan, u Kalinga (Orissa) fath etilgandan keyin Buddizmni qabul qilgan. Urushning shafqatsizligi harbiy rahbarni zo'ravonlikka murojaat qilmaslikka undagan. Qo'shin o'rniga, u o'z hokimiyatini tashqariga yetkazish uchun qo'shni davlatlarga Buddist rohiblarini tinchlik xabarlarini bilan yuborishni boshlagan. Imperator Ashoka "zabt etuvchi dxarma" (ya'ni odil hayot tamoyillari) siyosatiga amal qilgan. Ashokaning siyosiy o'zgarishini Hindiston tarixidagi "yumshoq" lar foydasiga "qattiq kuch" ni qisman rad etishning dastlabki holatlaridan biri sifatida ko'rish mumkin<sup>39</sup>.

Hindistonning "yumshoq kuchi" ning buddistlik tashabbuslaridan biri, 2010 yilda Hindistonning Bihar shtatidagi Nalanda universiteti (V-XVII asrlarda faoliyat ko'rsatgan Buddist universiteti va Hindiston shimolidagi monastir kompleksi) ning qayta tiklanishining boshlanganligini bu boradagi eng katta loyiha sifatida baholash mumkin. Shu bilan birga u xalqaro jamoatchilik tomonidan katta xalqaro loyiha sifatida

<sup>38</sup> Наумов А.О., Положевич Р.С. «Мягкая сила» Индии как суверенного государства: история и современность (Часть II). Государственное управление. Электронный вестник. Выпуск № 70. Октябрь 2018 г. С. 291

<sup>39</sup> Наумов А.О., Положевич Р.С. «Мягкая сила» Индии как суверенного государства: история и современность (Часть II). Государственное управление. Электронный вестник. Выпуск № 70. Октябрь 2018 г. С. 293

qabul qilingan. Hindiston bu singari tashabbuslar bilan bir qator mamlakatlarda, jumladan, Xitoy, Yaponiya va Singapurda budda ibodatxonalini ta'mirlashda ishtirok etgan.

Tibet masalasi Hindistonda buddizm diplomatiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Dalay Lama va uning tarafdorlariga siyosiy boshpana berish Hindistonning nufuzini nafaqat Tibet va Osiyo Buddistlari orasida, balki G'arbda ham ko'taradi. Minglab odamlar Hindistonga buddizm rivojini va Dalay Lamani bir bor ko'rish uchun oqib kela boshladilar. Bu shuni anglatadiki, Hindiston madaniy merosida buddizm alohida ahamiyat kasb etgan va bugunni kunda ham Hindiston dunyo buddistlar jamoasining markazi bo'lishga intilmoqda. Siyosiy jihatdan qaralganda surgundagi Tibet hukumatini qo'llab-quvvatlashi bilan Hindiston "yumshoq kuch" vositalari bilan o'zining "buyuk dushmaniga" javobsiz zarba bergandek bo'ldi.

Hindistonning amaldagi Bosh vaziri Narendra Modi Buddist diplomatiyasining imkoniyatlaridan Osiyo davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlash uchun foydalanadi. Shri-Lankaga, Yaponiya, Mo'g'uliston va Xitoyga qilingan xorijiy safarlar paytida Hindiston rahbari Anuradhapuradagi Mahabodxi ibodatxonasi (Shri-Lanka), Toji ibodatxonasi va Kinkakuji ibodatxonasi (Kyoto, Yaponiya) kabi ziyoratgohlarni ziyorat qilgan. Masalan, Janubiy Koreyada N. Modi muqaddas Bodxi daraxtining ko'chatini ekan, uning ostida afsonaga ko'ra Siddxarta Gautama ma'rifatga erishgan va Buddha bo'lgan<sup>40</sup>.

Hindistondan buddizm bilan bir qatorda, hinduizm ko'pgina Osiyo mamlakatlarida hind savdogarlari va sayohatchilari tomonidan tarqalgan. Masalan, birinchi navbatda Masalan, Kambodja (Angkor Wat) va Indoneziyadagi (Prambanan ibodatxonasi) hashamatli hindu ma'bad majmualari buni tasdiqlaydi. Hindlarning "Ramayana" dostoni hali ham juda mashhur bo'lib, Tailand va Indoneziya kabi bir qator Osiyo mamlakatlarining milliy an'analari va qadriyatlarining bir qismi sifatida tan olinadi.

Hindiston madaniy qadriyatlarining aksariyati qadimiy ma'naviy an'analarga asoslangan bo'lsa-da, mamlakat o'zining zamonaviy madaniyati, xususan, kinosi bilan ham mashhur.

Milliy madaniyatni o'z navbatida ikki qismga bo'lish mumkin, Birinchisi, an'anaviy madaniyat, ikkinchisi esa zamonaviy madaniyat. An'anviy madaniyat – Milliy madaniyatning asl ildizlariga ko'piroq e'tibor qaratish va uni aslidek saqlab qolishga urinish bo'lsa, Zamonaviy madaniyatga – Bollivudni misol qilish mumkin.

1998 yildan beri Hindistondagi rasmiy doiralar, Janubiy Osiyodagi eng katta mamlakatning iqtisodiy, geostrategik va madaniy ahamiyatini oshirish uchun Bollivudning potensialidan "yumshoq kuch" sifatida foydalanishga harakat qilib kelmoqda. 1998 yilda Hindiston hukumati tomonidan sanoat deb e'lon qilingandan

<sup>40</sup> Development Partnership Administration // Ministry of External Affairs [of India] [Электронный ресурс]. URL: <http://www.mea.gov.in/development-partnership-administration.htm> (дата обращения: 31.05.2018).

so'ng, Bollivud Hindistonning mintaqaviy va xalqaro darajada muhim rol o'ynashga qodir bo'lgan, progressiv global kuch sifatida tasvirlangan ko'plab filmlarni yaratdi<sup>41</sup>.

Ma'lumki, madaniyatning turli sohalari har doim davlatning asosiy tashqi siyosiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi va siyosatchilar bilan birgalikda o'z mamlakatlarining asosiy madaniy, iqtisodiy va harbiy manfaatlarini ilgari surish uchun munosib imidj yaratish bo'yicha ish olib boradi. Xalqaro beqaror vaziyat va tahdidlar turining oshib borishi sharoitida, kino sanoati va davlat apparati o'rtasidagi o'zaro aloqalar muhim ahamiyat kasb eta boshladi<sup>42</sup>.

Bugungi kunda akademik doiralar davlatlarning ko'ngilochar industriyasi va tashqi siyosati o'rtasidagi munosabatlarning qonuniyatlarini belgilashga, hukumatlarga xalqaro miqyosda o'z manfaatlarini ta'minlashda yordam beradigan yumshoq kuchning rolini tushunishga yo'naltirilgan qator tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqda.

Kino va tashqi siyosat qanday aloqador degan savollarga javob berish juda oson emas, chunki butun dunyoda ommaviy axborot vositalari va hukumatlar o'rtasidagi munosabatlar juda nozik va murakkab - tortishuvli to'qnashuvdan tortib to ochiq hamkorlikgacha bo'lgan manzarani ko'rsatadi. Zamonaviy texnologiya talab qiladigan va tijoratga asoslangan ommaviy axborot vositalari dominant mafkuralarni targ'ib qilmoqda, chunki ularning siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini hokimiyat koridorlari bilan o'zaro bog'liqdir<sup>43</sup>. Shunga ko'ra, ommaviy axborot vositalari va hukumat qudratiga ega elitalar va o'zlarining daromadlarini ko'paytirish uchun mafkurani abadiylashtiradigan kuchli biznes hamjamiyatiga tegishli bo'lgan aloqa vositalarining o'zaro ittifoqdoshlariga aylanishadi.

Shubhasiz, yirik ommaviy axborot vositalari madaniy, ijtimoiy va siyosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun tashkil etilgan tijorat korxonalaridir. Shu sababli, media tarkib daromadni oshirishdan manfaaddor bo'lgan tijorat kuchlari tomonidan ishlab chiqariladi va ular mamlakatning siyosiy va iqtisodiy tuzilmalarini boshqaruvchi elitalar bilan chambarchas bog'liqdir. Ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy va operatsion manfaatlarini elita bilan birlashtirilganligi sababli, ular ommaviy axborot vositalarini boshqaradiganlarning manfaatlarini himoya qilish g'oyasini ilgari suradilar. Mediasron qilingan mafkura, ayniqsa, millatlar o'rtasidagi munosabatlar haqida fikr yuritganda juda muhimdir.

So'nggi o'n yil ichida Pokiston va Hindiston o'rtasidagi munosabatlar keskinlashuv va pasayishning tubdan qarama-qarshi bosqichlaridan o'tgan bir paytda ikki xalqning madaniy yaqinligi va hamkorligi haqida bollivudda bir qator filmlar yaratilib xalqalar orasida o'ziga xos riaksiyaga sabab bo'lmoqda.

Kino sanoatining tabiati boshqa ommaviy axborot vositalaridan tubdan farq qiladi. Bu davlat tomonidan tartibga solinishdan nisbatan erkin va daromad olish uchun

<sup>41</sup> Azmat Rasul. Bollywoodization of foreign policy: How film discourse portrays tension between states. *Journal of Media Critiques [JMC]*

<sup>42</sup> Altschull, J. H. (1995). *Agents of power: the role of the news media in human affairs*. New York: Longman.

<sup>43</sup> Baum, M. (2007). *Soft News and Foreign Policy: How Expanding the Audience Changes the Policies*. *Japanese Journal of Political Science*, 8(1), 115-145.

tomoshabinlarni jalb qilishga imkoniyati katta ekanligi bilan izohlanadi. Biroq, ishlab chiqarish uylari ishlab chiqaruvchilari va rahbarlari siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga ega va ekspertlar ta'kidlaganidek, kino sanoatini "kapitalistik sanoat tuzilishi doirasida ishlab chiqarilgan va tarqatilgan tovarlar" deb hisoblash kerak. Ayrim mutaxassislar Amerika hukumati va Gollivud o'rtasidagi sinergistik munosabatni tasvirlaydi va AQSh hukumatining faol moliyaviy hamda siyosiy ko'magi bilan Yevropada kapitalistik mafkurani rivojlantirishda kino sanoatining rolini tushuntiradi<sup>44</sup>.

Kino sanoatining o'sib borayotgan siyosiy ahamiyatiga qaramay, aloqa sohasidagi olimlar ommaviy munozaralar va siyosatni shakllantirishda ko'ngilochar ommaviy axborot vositalarining roliga ahamiyat berishga oz e'tibor qaratdilar. Garchi Bollivudning misli ko'rilmagan o'sishi va global ahamiyati aloqa sohasidagi olimlar uchun munosib imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, sub-qit'ada ulkan kino prodyuseri sifatida paydo bo'lgan Bollivudning iqtisodiy tuzilishi, siyosiy moyilligi va mafkuraviy yo'nalishi haqida ozgina tanqidiy munozaralar mavjud<sup>45</sup>. So'nggi yillarda bu nafaqat Janubiy Osiyoda madaniy sohada ustunlik qilmoqda, balki dunyoning turli burchaklaridagi Gollivudning ustunligiga raqobatchi sifatida maydonga chiqmoqda. Har kuni Bollivud filmlarini 11 million kishi tomosha qiladi. Hind filmlari nafaqat qiziqarli, tomoshabenbop, shuningdek, hind jamoalarining estetik didi, shu bilan birga butun dunyo bo'ylab taniqli gosterlarning e'tiborini jalb qiladigan Hindistonning mashhur madaniyatini aks ettiruvchi vositadir.

Haqli ravishda hind filmlari butun dunyo bo'ylab mahalliy sanoat hisobidan hind madaniy mahsulotlarini tomosha qilish uchun pul sarflashga tayyor bo'lgan auditoriyani topa olgan. Hind kinosining global faoliyati Hindiston hukumatining faol ko'magisiz amalga oshishi mumkin emas edi. Mutaxassislardan Kavoori va Punathambekar hind kinosi Birlashgan Qirollik, Amerika, Fidji, Gayana va Yaqin Sharq va Afrikadagi hind muhojirlari yashaydigan bir qator davlatlar va jamiyatlarni qamrab olganligini va bu mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik uchun asoslar yaratishda yordam berganligini ta'kidlamogda. Hindiston hukumati va bir necha o'n millionli hind diasporasi o'rtasidagi eng muhim bog'lovchi vositalardan bir ham bu hind kinosi g'isoblanadi<sup>46</sup>.

Bollivud bugungi kunda eng ko'p kino ishlab chiqaruvchi va uni juda katta miqdorda sotuvchi dunyodagi yetakchi kino brendga aylangan.

Bollivud brendi umumiy ma'noda, butun zamonaviy hind kinosiga nisbatan qo'llanilsada biroq aslida Bollivud - bu Mumbayda hind tilida kino ishlab chiqaradigan studiyalar va filmlarning jamoaviy nomi. Bollivudga qo'shimcha ravishda, Hindistonda ishlab chiqarilgan filmlar soni va kassalar soni bo'yicha Bollivuddan kam bo'lmagan boshqa kinostudiyalar mavjud masalan, Tamil Naduda joylashgan va Tamilada filmlarni suratga oliuvchi yoki Andra Pradeshda joylashgan Telugu tilida filmlar suratga

<sup>44</sup> Chakravarty, S. (1993). National identity in Indian popular cinema, 1947-1987. Austin: Texas University Press.

<sup>45</sup> Chatterji, B. (2008). Global cultural wars and Indian diaspora. Delhi: Sage

<sup>46</sup> Gilboa, E. (2005). Global Television News and Foreign Policy: Debating the CNN Effect. International Studies Perspectives, 6(3), 325-341.

oluvchi Tollivud film shular jumlasidandir.<sup>47</sup> Shunisi e'tiborga loyiqki, tamil tilidagi filmlar asosan Shri-Lanka, Malayziya, Singapur va Fidjiga qaratilgan; Bengal filmlari qo'shni Bangladeshda ayniqsa mashhur; Panjab tilidagi filmlarning maqsadli tomoshabinlari Pokistonda juda katta auditoriyani tashkil qiladi Hind kinolari birinchi o'rinda Hindistonning Janubiy Osiyodagi madaniy ta'sirini ushlab turishga qaratilgan katta strtegiya hisoblanadi deb aytishimiz mumkin. chunki mintaqaning biror bir davlati yo'q-ki hind filmlarini domiy haridori bo'lmagan.

Bollivud filmlari Hindiston madaniy axloqida chuqur ildiz otgan. Ular hind "yumshoq kuchi" ning asosiy elementlaridan biri bo'lib, xorijiy tomoshabinlarga ushbu ekzotik sharqiy mamlakatning noyob an'analari, qadriyatlar tizimi va estetikasi bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Hindistonning jozibadorligi va uni dunyoga tanitadigan vositalardan yana biri hind milliy madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadigan hind oshxonasi, plastmassa san'ati, to'qimachilik va rivojlangan zamonaviy moda san'ati hisoblanadi. Milliy madaniyatning bu turlariga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganligi hind yumshoq kuchi rivojiga o'zi ga xos turtki beradi. Hindistonda hukumat milliy madaniyatning bu turlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlar qabul qilgan. Masalan hukumat ko'magi bilan "Xadi" yoki "Khaddar"<sup>48</sup> deb nomlangan tabiiy hind matolari jahon bozoriga chiqmoqda. Musulmon sharqida ham rivojlangan Yevropa va hatto uzoq Yaponiyada ham hindlarning bu matolaridan yetakchi dizaynerlar xalqaro darajadagi kolleksiyalarini yaratishda foydalanilmoqda.

Qadim zamonlardan buyon savdo-sotiq qilinadigan hind ziravorlari va umuman hind taomlari dunyoda mashhur bo'lib kelmoqda. Hindistonning sobiq tashqi ishlar vaziri, hozir Kerala shtatidan bo'lgan Lok Sabha a'zosi Shashi Tarur ta'kidlashicha, bugungi kunda Buyuk Britaniyada temir rudasi, po'lat ishlab chiqarish, ko'mir sanoati va kemasozlikda band bo'lgan ishchilar bilan solishtirganda, butun dunyo bo'ylab hind oshxonasida ishlayotganlarning soni ko'piroqni tashkil qiladi<sup>49</sup>. Dunyo miqyosiga chiqqan hindistonlik oshpazlardan Gaggan Anand, Vikas Xanna va Atul Koxharlarning har bir va ularning shogirdlari o'zini hurmat qiladigan restavratorlar uchun o'ta hurmatli shaxslardir.

Hindiston milliy madaniyatining saqlab qolinishida va uni ravnaqi hamda provardida uning Hindiston tashqi imidjiga ijobiy ta'sir ko'rsatishida Hindistonning ichki siyosiy qadriyatlari muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Uning federal tuzilishi, ko'p millatli demokratiya, siyosiy plyuralizm, dunyoviylik, dinlar, irqar va tillarning bag'rikengligi milliy madaniyat ravnaqida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hindistonning yigirma uchta rasmiy tilga ega bo'lgan yagona mamlakat ekanligining o'zi ham uni tillar borasida bag'ri kengligini ko'rsatadi<sup>50</sup>.

<sup>47</sup> Dixit J.N. India's Foreign Policy 1947–2003. New Delhi: Picus Books. 2003.

<sup>48</sup> Ek Bharat, Shreshtha Bharat (One India, Great India): Sabka Saath, Sabka Vikas (With Everyone and Development for Everyone). Election Manifesto 2014 // Bharatiya Janata Party [https://www.bjp.org/images/pdf\\_2014.pdf](https://www.bjp.org/images/pdf_2014.pdf)

<sup>49</sup> Hall I. India's New Public Diplomacy: Soft Power and the Limits of Government Action. // Asian Survey. 2012. Vol. 52. N 6. P. 1089–1110.

<sup>50</sup> Hymans Jacques E.C. India's Soft Power and Vulnerability // India Review. 2009. Vol. 8. N 3. P. 234–265.

Zamonaviy Hindistonning milliy madaniyati targ'iboti va "yumshoq kuchining" yana bir manbai bu chet eldagi hind diasporasi hisoblanadi. bu diaspora dunyoda ingliz tilida so'zlovchi eng katta diaspora sifatida tan olinadi. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda dunyoda 15,6 milliondan ortiq hind muhojirlari istiqomat qilgan. Hindiston rasmiy statistikasini ko'ra 2017 yil oxiriga kelib, Hindistonning xorijiy diasporasi taxminan 62,5 million kishini tashkil etgan<sup>51</sup>. N.Modi o'zining xorijiy safarlarida har doim birinchi galda hind diasporasi vakillari bilan uchrashishga harkat qiladi. Masalan u o'zining AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya kabi davlatlarga amalga oshirgan davlat tashriflarida birinchi bo'lib o'z vatandorshlari bilan uchrashgan. AQShda yashayotgan hind diasporasi Hindiston AQSh munosabatlarida muhim ko'pirik hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Yumshoq kuch mamlakatga samarali tashqi siyosat yo'nalishlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga mamlakat tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun yumshoq kuch imkoniyatlaridan qay darajada foydalanayotganini tushunishga yordam berib, mamlakatning milliy salohiyatini oshiradi. Hindistonning yumshoq kuchi dunyodagi eng tez rivojlanayotgan yirik iqtisodiyotlardan biri sifatida iqtisodiy qudrati bilan parallel ravishda oshib bormoqda. Qolaversa, dunyodagi eng yirik demokratik davlat sifatida Hindistonning tashqi siyosati uning tarixiy va amaliy tajribalari bilan uyg'unlashgani uning mintaqah va global miqyosda xalq diplomatiyasining samarali ishlashi mumkinligini ko'rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. GERA ROY, Anjali (ed.). *The Magic of Bollywood: At Home and Abroad*. Nova Delhi: Sage, 2012.
2. KAPUR, Daves. *Diaspora, Development, and Democracy: The Domestic Impact of International Migration from India*. Princeton: Princeton University Press, 2010.
3. KUGIEL, Patryk. *India's Soft Power: Foreign Policy Strategy*. Londres: Routledge, 2017.
4. NYE, Joseph. *Soft Power: The Means to Success in World Politics*, Nova York: Public Affairs, 2004.
5. SCHAEFER, David; KARAN, Kavita (eds.). *Bollywood and Globalization: The Global Power of Popular Hindi Cinema*. Londres: Routledge, 2013.
6. SWAMINATHAN, Roopa. *Bollywood Boom: India's Rise as a Soft Power*. Nova Delhi: Penguin, 2017

<sup>51</sup> Indian Council of World Affairs [Электронный ресурс]. URL: <https://icwa.in/>